

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 2 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 7, НОМЕР 2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 7, ISSUE 2



# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

№2 (2024) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2024-2>

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**  
**Сеитов Азамат Пулатович**  
доктор социологических наук  
(Doctor of sociology, DSc)

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**  
**Сабирова Умида Фархадовна**  
доктор социологических наук  
(Doctor of sociology, DSc)

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.  
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.  
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Бекмурадов Мансур Бобомурадович**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Каланов Комил Куллахматович**  
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Убайдуллаева Раиса Турсуновна**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Негматова Шахзода Шухратовна**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Шайылдаева Асель Кокоевна**  
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

**Исмаилов Алишер Агзамович**  
доктор экономических наук, (Узбекистан)  
**Щепилова Галина Германовна**  
доктор философских наук, профессор (Россия)  
**Рожанский Михаил Яковлевич**  
кандидат философских наук (Россия)  
**Маматов Нормурат**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Бурнашев Рустам Ренатович**  
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи  
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни  
Social structures, social institutions and way of life

**Умаров Абсалом Адилевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Холбеков Абдугани Жуманазарович**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Акулич Мария Михайловна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)

**Антонио Алонсо Марсос**  
доктор политических наук, профессор (Испания)  
**Фадеева Любовь Александровна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Виктор Агаджаньян**  
доктор философии по социологическим наукам,  
профессор (США)  
**Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллоевич**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.  
Социология социального сознания и социального процесса.  
Sociology of social consciousness and social process

**Аликариев Нуритдин Сапаркариевич**  
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)  
**Матибаев Тасполат Балтабаевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Николов Стефан**  
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

**Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Ли Ци**  
доктор исторических наук, профессор (Китай)  
**Сухомлинова Марина Валерьяновна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)

[www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz) решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных.

# ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ | РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ | EDITORIAL TEAM:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.  
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.  
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Пармонов Фарход Ярашевич**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Толипов Файзулла Саидович**  
кандидат исторических наук, доцент (Узбекистан)

**Камалова Хатира Сабыровна**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Тагиева Гулсум Гафуровна**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)  
**Ахмедова Феруза Медетовна**  
доктор философии по социологическим наукам (PhD)  
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи  
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни  
Social structures, social institutions and way of life

**Аликариева Аълохон Нуриддиновна**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Зайтов Элёр Холмаматович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)

**Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
и.о. доцент (Узбекистан)  
**Қаюмов Қахрамон Нозимжонович**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.  
Социология социального сознания и социального процесса.  
Sociology of social consciousness and social process

**Махкамов Қодиржон Одилжонович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)  
**Доспанова Дилара Уракбаевна**  
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

**Каримов Бобир Шаропович**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Якубов Ильдар Харрасович**  
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: @devdasdesign

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

МАҚОЛАДА КЕЛТИРИЛГАН ДАЛИЛЛАРНИНГ ТЎҒРИЛИГИ ҲАҚИДА АҲДЭШТИРИЛГАН. АВТОР НЕСЕТ ОТВЕТСТВЕННОСТЬ ЗА ДОСТОВЕРНОСТЬ ФАКТОВ ИЗЛОЖЕННЫХ В СТАТЬЕ

<b>1. Гонашвили А.С.</b> К ВОПРОСУ ФОРМИРОВАНИЯ ЕВРАЗИЙСКОГО НАУЧНО-ОБРАЗОВАТЕЛЬНОГО ПРОСТРАНСТВА: ОПЫТ УНИВЕРСИТЕТА ПРИ МПА ЕврАзЭС.....	5
<b>2. Sodiqova Shohida Marxaboevna</b> ZAMONAVIY IJTIMOIIY HIMOYA TIZIMINING UMUMBASHARIY TAMOYILLARI, SHAKLLARI VA SUBYEKTLARI.....	15
<b>3. Farfiyev Baxramdjan Atxamdjanovich</b> DIN SOTSIOLOGIYASI FANINING METODOLOGIK MASALALARI XUSUSIDAGI AYRIM MULOHAZALAR.....	25
<b>4. Abduraxmonova Manzura</b> MAKTABLARDA IJTIMOIIY ISH FAOLIYATINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI.....	34
<b>5. Sodiqova Shohida Marxaboevna, Tagieva Gulsum Gafurovna</b> “IJTIMOIIY TA’MINOT” TUSHUNCHASINING MAZMUN VA MOHIYATI.....	40
<b>6. Kayumov Kaxramon</b> O‘Z KASBIGA SADOQAT SOTSIAL FENOMEN SIFATIDA.....	46
<b>7. Mo‘minov Zokirjon</b> TASHQI MIGRATSIYA JARAYONLARINING EVOLYUSION TENDENSIYALARI.....	52
<b>8. Ахмедова Раъно</b> ИНТЕРНЕТ КАК ПРОСТРАНСТВО МАССОВОЙ КОММУНИКАЦИИ.....	59
<b>9. Masharipov Baxtiyar</b> SIFATIIY SOTSIOLOGIK TADQIQOTLARDA “SHAHAR” IJTIMOIIY INFRATUZILMA MAKONINING OILAVIY MUNOSABATLARDAGI TADQIQI.....	68
<b>10. Рашидова Шахноза</b> МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИЗУЧЕНИЯ ДЕВИАНТНОГО ПОВЕДЕНИЯ ПОДРОСТКОВ.....	77
<b>11. То‘рахо‘jaeva Ra’no</b> DAVLAT FUQAROLIK XIZMATINING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	84
<b>12. Zaretdinova Nesibeli</b> QORAQALPOG’ISTONDAGI IJTIMOIIY-DEMOGRAFIK HOLATNI O‘RGANISH DOLZARBLIGI.....	91

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

## ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES


**Sodiqova Shohida Marxaboevna,**

О‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi,  
“Din psixologiyasi va pedagogika” kafedrasini professori,  
e-mail: sodikova.shohida1011@gmail.com

**Tagieva Gulsum Gafurovna,**

Sharof Rashidov nomidagi  
Samarqand davlat universiteti,  
Sotsiologiya va Ijtimoiy ish kafedrasini dotsenti,  
e-mail: gt120886@gmail.com

### “IJTIMOIY TA’MINOT” TUSHUNCHASINING MAZMUN VA MOHIYATI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15868257>

#### ANNOTATSIYA

Mazkur maqola “Ijtimoiy ta’minot” tushunchasining genezisiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda O‘zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida barpo etilayotgan ijtimoiy ta’minot, ijtimoiy ta’minotning pensiya, nafaqa, kompensatsiya, imtiyozlar hamda ijtimoiy yordam turlari, ehtiyojmand aholiga moddiy yordam ko‘rsatish, umuman, kuchli ijtimoiy himoya masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, o‘zbek xalqining turmush tarzi, diniy axloq-odobi, urf-odati hamda qadimiy an‘analari fuqarolarni qadimda ijtimoiy himoyalanganligini bildirishi, tarixda ijtimoiy ta’minot asosan xayriya mablag‘lari hisobidan amalga oshirilganligi, bugungi kundagi ijtimoiy himoya masalalarining proaktiv tizimga o‘zgartirilayotgani yoritilgan. Undan tashqari ijtimoiy ta’minotning ta’rifi va muallifning ijtimoiy ta’minotga bergan ta’rifi keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** ijtimoiy ta’minot, ijtimoiy himoya, ijtimoiy siyosat, ijtimoiy yordam, nafaqa, pensiya, kompensatsiya, imtiyozlar, ijtimoiy va tibbiy xizmat.

**Содикова Шохид Мархабона,**

Международная исламская академия Узбекистана,  
профессор кафедры «Психология религии и педагогика»,  
e-mail: sodikova.shohida1011@gmail.com

**Тагиева Гульсум Гафуровна**

Самаркандский государственный университет имени Шарофа Рашидова,  
доцент кафедры Социологии и социальной работы  
e-mail: gt120886@gmail.com

### СОДЕРЖАНИЕ И СУЩНОСТЬ ПОНЯТИЯ «СОЦИАЛЬНОЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ»

#### АННОТАЦИЯ

Данная статья посвящена генезису понятия «Социальное обеспечение», которое включает в себя социальное обеспечение, создаваемое на современном этапе развития

Узбекистана, социальное обеспечение пенсий, пособий, компенсаций, льгот, а также виды социальной помощи, материальную помощь нуждающемуся населению, в целом анализируются серьезные вопросы социальной защиты. Также образ жизни, религиозная этика, обычаи и древние традиции узбекского народа свидетельствуют о том, что граждане в древности были социально защищены, что социальное обеспечение в истории осуществлялось в основном за счет пожертвований, а сегодня вопросы социальной защиты решаются преобразована в проактивную систему освещения. Кроме того, представлены определение социального обеспечения и авторское определение социального обеспечения.

**Ключевые слова:** социальное обеспечение, социальная защита, социальная политика, социальная помощь, пособие, пенсия, компенсация, льготы, социальное и медицинское обслуживание.

**Sodikova Shokhida,**  
International Islamic Academy of Uzbekistan,  
Professor of the Department of Psychology of Religion and Pedagogy,  
e-mail: sodikova.shohida1011@gmail.com  
**Tagieva Gulsum,**  
Samarkand State University named after Sharof Rashidov,  
Associate Professor of the Department of Sociology and Social Work  
e-mail: gt120886@gmail.com

## CONTENT AND ESSENCE OF THE CONCEPT OF “SOCIAL SECURITY”

### ABSTRACT

This article is devoted to the genesis of the concept of “Social Security”, which includes social security created at the present stage of development of Uzbekistan, social security of pensions, allowances, compensation, benefits, as well as types of social assistance, material assistance to the needy population, in general, serious issues are analyzed social protection. Also, the way of life, religious ethics, customs and ancient traditions of the Uzbek people indicate that citizens in ancient times were socially protected, that social security in history was carried out mainly through donations, and today issues of social protection are resolved through a proactive lighting system. In addition, the definition of social security and the author's definition of social security are presented.

**Key words:** social security, social protection, social policy, social assistance, benefits, pension, compensation, benefits, social and medical services.

### KIRISH

Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining hozirgi bosqichida barpo qilinayotgan ijtimoiy himoya, ijtimoiy ta‘minot, ya‘ni bir so‘z bilan aytganda ijtimoiy siyosat fuqarolar uchun farovon hayotni qaror toptirishdan iborat. Bugungi kundagi demografik o‘shish, aniqrog‘i, pensiya yoshidagi kishilarning ko‘payishi mavjud ijtimoiy himoya tizimini saqlab qolish maqsadga muvofiq bo‘lmaydi. Chunki, ijtimoiy ta‘minot institutlariga, maqsadli jamg‘armalarga, ya‘ni budjetdan tashqari pensiya jamg‘armasiga, bandlikka ko‘maklashish jamg‘armasiga, sog‘liqni saqlash tizimiga yuk izchil ko‘payib borayapti. Shu sababli Yangi O‘zbekistonning ijtimoiy himoya tizimida yangi modellarni ishlab chiqish, insonlar uchun ham moddiy, ham ma‘naviy jihatdan yuksak iqtisodiy makonni barpo etish hayotiy zaruratdir.

«Ijtimoiy ta‘minot» atamasi xalqaro hujjatlarda rasman ishlatila boshlaganiga 30 yil to‘ldi. Shu davr ichida faoliyat turi, tadqiqot usuli, baholash va bashorat qilish mexanizmi sifatida bu tushuncha kirib bormagan biror ijtimoiy soha, biron bir ishlab chiqarish tarmog‘i qolmadi. **Ijtimoiy ta‘minot** – lotincha so‘zdan olingan bo‘lib, **ijtimoiy** – jamiyatga taalluqli, jamiyat bilan bog‘liq, jamoat, odamlarning jamiyatdagi munosabatlari degan ma‘noni bildirsa, **ta‘minot** - narsalarni muhayyo qilib yetkazib berish; yashash, ishlash uchun zarur narsalarga bo‘lgan ehtiyojni qondirish, ma‘naviy ozuqa, dalda, umid degan ma‘nolarni anglatadi [1]. Ikkala so‘zning lug‘aviy ma‘nosini

birlashtirib, ijtimoiy ta'minot bu – jamiyatdagi ehtiyojmand qatlamlarning yashash uchun zarur narsalarini (pul, oziq-ovqat, kiyim-kechak) yetkazib berish degan ma'nolarni bildiradi.

### **METODOLOGIYA**

**Ijtimoiy ta'minot** – keksaygan, mehnatga layoqatsiz bo'lgan va boquvchisini yo'qotgan fuqarolarga moddiy, tibbiy va ijtimoiy yordam ko'rsatish bo'yicha davlat tomonidan belgilangan ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlar tizimi. Ijtimoiy himoyaning muhim tarmog'idir [2].

Bugungi kunda ijtimoiy ta'minot tizimini rivojlantirish bo'yicha muvofiqlashtirilgan strategiya va yagona qarash mavjud emas. Shu bilan bir qatorda qonunchilikda ijtimoiy ta'minot ko'p qirrali hodisa bo'lib, uning rasmiy ta'rifi yo'q. Ilmiy va o'quv adabiyotlarida ijtimoiy ta'minot tushunchasi mualliflar tomonidan ushbu hodisa uchun qanday xususiyatlar asosiy qabul qilinganligiga qarab turlicha shakllanadi. Demak, ijtimoiy ta'minotga turli manbalarda turlicha ta'riflar berilgan.

R.I.Ivanova ijtimoiy ta'minotga – fuqarolarga qariganda, mehnatga layoqatini va boquvchisini yo'qotgan taqdirda mehnatga haq to'lashdan tashqari, normal turmush darajasi va madaniy darjasini kafolatlaydigan taqsimlash shakli deb ta'riflagan [3, – S.8] bo'lsa, boshqa manbalarda, M.P.Zaxarov va E.G.Tuchkovalar ijtimoiy ta'minotni – yalpi ichki maxsulotning bir qismini to'liq davlat tomonidan qat'iy tartibga solinadigan miqdorda va shartlarda maqsadli moliyaviy manbalar hisobidan fuqarolarni ijtimoiy xavf-xatarlar bo'lgan holatda ijtimoiy mavqeini saqlab qolgan holda moddiy manfaatlar berish orqali boshqa fuqarolar bilan tenglashtirish uchun taqsimlash usullaridan biri deb hisoblaydi [4, – S.29].

### **ASOSIY QISM**

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, ijtimoiy ta'minotga mualliflik ta'rifini ishlab chiqdik:

Ijtimoiy ta'minot bu – fuqarolarning ijtimoiy mavqeini tenglashtirish maqsadida qonunda belgilangan hollarda muayyan yuridik faktlar yuzaga kelganda, keksaygan, mehnatga layoqatsiz va boquvchisini yo'qotgan fuqarolarga moddiy, tibbiy va ijtimoiy yordam shaklini ko'rsatish bo'yicha davlat tomonidan belgilangan ijtimoiy-iqtisodiy tadbirlar tizimi. Ijtimoiy himoyaning muhim tarmog'i.

Ijtimoiy ta'minot – aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining tarkibiy qismlaridan biri. Ijtimoiy ta'minot – maqsadli moliyaviy manbalar hisobidan ijtimoiy xatarlar yuzaga kelgan hollarda shaxsiy daromadlarni tenglashtirish uchun fuqarolarga moddiy manfaatlar berish va qo'llab-quvvatlashni nazarda tutadi. Bugungi kunda davlat ijtimoiy ta'minot tizimi bilan bir qatorda nodavlat ijtimoiy ta'minot tizimlarini ham ko'rishimiz mumkin. Xususan, O'zbekistonda «Nuroniy», «Sog'lom avlod uchun», «Mahalla», Bolalar va boshqa ijtimoiy jamg'armalarning tashkil etilganligi, turli korxonalar, tashkilotlar, ayrim fuqarolar tomonidan xayr-ehson tarzida turli yordamlar, tadbirlar uyushtirilayotganligi nodavlat ijtimoiy ta'minot tizimlarini ham asta-sekin shakllantirib borilayotganligidan dalolat beradi. Ijtimoiy ta'minotning boshqa ko'rinishlari tashkil etilganligi, turli korxonalar va tashkilotlar, ayrim fuqarolar tomonidan hayyor-ehson tarzida turli yordamlar, tadbirlar uyushtirilayotganligi nodavlat ijtimoiy ta'minot tizimlarini ham asta-sekin shakllantirib borayotganligidan, aholining yordamga muhtoj, zaif qatlamlarini ijtimoiy himoya qilishda ularning o'rni, salmog'i ortib borayotganligidan darak beradi. Ijtimoiy ta'minotning bir necha turlari mavjud bo'lib, u quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Pensiyalar
2. Nafaqalar
3. Kompensatsiyalar
4. Imtiyozlar
5. Ijtimoiy yordam.

Pensiya bu – belgilangan (pensiya) yoshiga yetganda, nogironlik yuz berganda, boquvchisini yo'qotganda, shuningdek, belgili muddat xizmat qilgani uchun va davlat oldida alohida xizmatlari uchun fuqarolarning davlat yoki sobiq xodimlarning sobiq ish beruvchilari tomonidan muntazam pul daromadlari bilan ta'minlanishi [5, – S.367]. Fuqarolar ijtimoiy ta'minotning pensiya turidan foydalanishlari uchun Moliya vazirligi xuzuridagi budjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga kamida 7 yil sug'arta badallari to'lagan holatdagina pensiya olish huquqiga ega bo'ladilar [6]. Bu bilan aytish

joizki, tashkilot, korxonalarda ishlab davlatga pensiya uchun sug'urta badallarini kamida 7 yil to'lamas ekan, jamg'arma bunday fuqarolarni pensiyaga chiqarmaydi. Ular faqat nafaqa olish huquqiga ega bo'lishadi.

Nafaqa bu – muhtoj odamlarga davlat, korxon, muassasa va ayrim shaxslar tomonidan beriladigan yordam puli. Fuqaro nafaqa olishi uchun budjetdan tashqari pensiya jamg'armasiga sug'urta badallarini tulashtirish talab qilinmaydi. Nafaqa ijtimoiy yoki oilaviy vaziyat tufayli qiyin ahvolga tushib qolgan aholi qatlamlariga bir marotaba yoki bir muddatga beriladigan to'lovdur. Lekin nafaqaning ham turlari mavjud bo'lib: budjet hisobidan to'lanadigan nafaqalar va sug'urta badallari hisobidan to'lanadigan nafaqa turlariga bo'linadi [7]. Demak, nafaqa – yetarlicha ish stajiga ega bo'lmagan qariyalar, nogironligi bo'lgan shaxslarga, shuningdek, kam ta'minlangan oilalarga, ishsizlarga, shuningdek, mehnat shartnomasi bekor qilingan ayrim holatlarda va xodimning sog'lig'iga shikast yetkazilganligi yoki uning vafoti munosabati bilan nafaqalar beriladi.

Kompensatsiyalar – insonlar o'z faoliyati evaziga oladigan moliyaviy va moliyaviy bo'lmagan mukofotlarning umumiy to'plami. U xodimlarga beriladigan ish haqi, bonuslar, imtiyozlar va boshqa rag'batlantirishlarni o'z ichiga oladi [8]. Kompensatsiyaning maqsadi iqtidorli xodimlarni jalb qilish va ushlab turish, ularni eng yaxshi natijalarga erishishga undash va tashkilotga qo'shgan hissalarini uchun adolatli kompensatsiyani ta'minlashdir. Kompensatsiya tashkilotning maqsadlari va budjetiga qarab turlicha tuzilishi hamda ichki va tashqi omillar orqali aniqlanadi.

Imtiyozlar bu – muayyan sabablarga ko'ra yuridik va jismoniy shaxslarga beriladigan afzallik. Imtiyozlar davlat qonunlari va boshqa qonun hujjatlariga binoan – fuqarolarga, shuningdek, jamoat birlashmalari tomonidan ma'muriyat qaroriga muvofiq – uning a'zolariga tayinlanishi mumkin. Imtiyozlar berilgan shaxs belgilangan qoidalardan istisno tariqasida muayyan majburiyatlarni bajarishdan to'la yoki qisman ozod qilinadi yoxud ularni bajarish sohasida muayyan qulayliklardan foydalanadi. Soliq, pensiya ta'minoti, kommunal maishiy xizmatlar uchun to'lovlar kabi sohalaridagi imtiyozlar davlat tomonidan belgilanadi. Imtiyozlar qonun hujjatlari bilan belgilangan taqdirda uning foydalanuvchilar doirasi, foydalanish shartlari, tartib qoidalari, yuzaga kelish va tugatilish asoslari ko'rsatiladi. Imtiyozlar yuridik shaxslarga ham (masalan, soliq to'lashdan butunlay yoki ma'lum muddatga, to'la yoxud qisman ozod qilish, imtiyozli shartlarda kredit bilan ta'minlash borasida va hokazo), jismoniy shaxslarga ham berilishi mumkin. Imtiyozlar tayinlashda fuqarolarning teng huquqliligi va adolat tamoyillariga qat'iy amal qilinadi [9]. Bu bilan aytish joizki, imtiyozlar muayyan sabablarga ko'ra yuridik va jismoniy shaxslarga beriladigan afzallik. Ijtimoiy ta'minot sohasidagi imtiyozlar haqida gap ketganda, avvalo biz nogironlarga beriladigan imtiyozlar, nogiron farzandni tarbiyalayotgan ota-onalarning biriga va hokazo shu tariqa davlat tomonidan berilayotgan imtiyozlarni sanashimiz mumkin. Misol uchun, I va II guruh nogironlariga nafaqa tayinlansa, III guruh nogironlariga imtiyozlar beriladi, ya'ni ular og'ir mehnat, zararli, xavfli mehnatlardan ozod etiladi. Ularga yengil va qisqa muddatli mehnat faoliyatiga jalb etiladi.

Ijtimoiy yordam bu – davlat va jamiyatning qariligi, sog'lig'i, ijtimoiy ahvoli, tirikchilik uchun vositalar bilan yetarli ta'minlanmagan tufayli yordamga muhtoj fuqarolar to'g'risida g'amxo'rlik. Ijtimoiy yordam (ijtimoiy himoya, ijtimoiy ta'minot) pensiyalar, nafaqalar to'lash, kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam ko'rsatish, 18 yoshgacha farzandi bo'lgan kam ta'minlangan oilalarga oylik nafaqa to'lash, bemorlar va keksalarga xizmat ko'rsatish, bolalarga g'amxo'rlik qilish ko'inishida amalga oshiriladi. Mehnatga layoqatsizlarni moddiy ta'minlashning qat'iy kafolatli tizimi ijtimoiy sug'urta, deb ataladi [10]. Bugungi kunda nogironligi bo'lgan fuqarolarga orderlar berish orqali ularga bepul tibbiy yordamlar ko'rsatilishi, Reabilitatsiya markazlarida bepul davolanishlari, protez-ortopediya maxsulotlari, eshitish vositalari, nogironlik aravachalari berilishi, yakka-yolg'iz keksalarga uylarida ijtimoiy yordam va xizmat ko'rsatilishi kabilari misol bo'la oladi.

Ijtimoiy yordam va ijtimoiy ta'minot o'rtasidagi farq shundaki, ijtimoiy yordam vaqtinchilik bo'lib, u asosiy tirikchilik manbai emas.

Yuqoridagi ijtimoiy ta'minot turlarini amalga oshiruvchi yagona organ yo'q. Bu funktsiya har xil idoralar orasida taqsimlanib kelinmoqda. Misol, fuqarolarga pensiyalarni tayinlash va to'lash ishlarini Budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi, nafaqalarni – bir nechta tashkilotlar amalga

oshirishini ko‘rishimiz mumkin (ishsizlik nafaqasini – bandlikka ko‘maklashish markazlari; vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqasini – fuqaro ishlab turgan korxonalar, dafn etish marosimi uchun beriladigan nafaqa – xalq va h.k.).

O‘zbek xalqining turmush tarzi, diniy axloq-odobi, urf-odatlar hamda qadimiy an‘analari fuqarolarni qadimdan oz bo‘lsa-da, ijtimoiy himoyalanganligini bildiradi. Lekin, bu himoya barcha muhtoj qatlamlarni to‘liq qamrab olmagan hamda doimiy xarakterga ega bo‘lmagan. Asta sekinlik bilan ijtimoiy himoya turli xil ko‘rinishlarda amalga oshirila boshlandi: jumladan, jamoalarning ixtiyoriy yordamlaridan boshlab, majburiy davlat ijtimoiy ta‘minoti bilan tugatildi. Bunda davlatning ijtimoiy ta‘minoti ish beruvchilar hamda ishlovchi fuqarolarning majburiy sug‘urta badallari va o‘zini o‘zi band qilgan fuqarolarning ixtiyoriy sug‘urta badallari orqali mablag‘lar shakllantirila boshlandi. Bunda ba‘zi davlatlar aholini himoya qilganda majburiy sug‘urta badallaridan shakllantirilgan mablag‘lar evaziga himoya qilsa, ba‘zilari hayriya mablag‘lari hisobidan amalga oshirishadi.

O‘zbekiston Respublikasi tarixiga nazar solarsak ekanmiz, ijtimoiy ta‘minot asosan xayriya mablag‘lari hisobidan amalga oshirilganining guvohi bo‘lamiz. O‘zbek xalqining tarixi O‘rta Osiyo xalqlari tarixining bir bo‘lagi bo‘lib, u og‘ir va murakkab yo‘llarni bosib o‘tgan. Usha og‘ir davrlarda nafaqat pensiya, balki oziq-ovqat, kiyim-kechak yetkazib berishda ko‘p qiyinchiliklarga duch kelgan. 1923-1924-yillarda Markazdan va qurg‘ochilik bo‘lgan o‘lkalarda Turkistonga aholining ko‘chib kelishi, ocharchilikning mavjudligi, ijtimoiy himoyalash, ovqat, joy, ish bilan ta‘minlash masalalarini hal qilish maqsadida alohida komissiya tuzilib, mablag‘lar davlat budjet va mahalliy budjetlar hisobidan amalga oshirilgan.

Tarixdan farqli o‘laroq, ijtimoiy ta‘minot to‘g‘ridan-to‘g‘ri davlat budjetidan ajratiladigan mablag‘lari, homiylar (turli jamg‘arma va tashkilotlar, yuridik va jismoniy shaxslar) mablag‘lari hisobidan amalga oshiriladi. Ijtimoiy ta‘minot miqdori va taqdim etish tartibi milliy urf-odatlar va xalqaro me‘yorlarga asosan ishlab chiqilgan qonunchilik hamda davlatning iqtisodiy imkoniyati doirasida amalga oshiriladi. Pensiyalar (keksalik bo‘yicha, nogironlik bo‘yicha, boquvchisini yo‘qotganlik bo‘yicha va ijtimoiy nafaqalar (nogiron bolalarga, bolalikdan nogironlarga, ishlamagan yolg‘iz nogiron va keksalarga) to‘lovlari ijtimoiy ta‘minotning eng muhim turlari hisoblanadi. Qariyalar va nogironlarga ijtimoiy xizmat ko‘rsatish – nogironlarni «Muruvvat» uylariga, yolg‘iz qariyalarni «Sahovat» uylariga joylashtirish, muhtojlarni protez-ortopediya va harakatlanish vositalari bilan ta‘minlash, nogiron bolalarni kasbga o‘qitish va ishga joylashishda yordam ko‘rsatish, pensionerlarni sanatoriy va dam olish uylarida sog‘lomlashtirish, ularga shahar jamoa transportlaridan foydalanishda, turar joy, maishiy xizmat va soliqlarga aloqador imtiyozlar berish ijtimoiy ta‘minotda katta rol o‘ynaydi.

O‘zbekistonda Ijtimoiy ta‘minot tizimi XX asrning 20-yillari boshidan shakllana boshlangan.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng 90-yillar boshidan bozor munosabatlariga o‘tish va ijtimoiy-iqtisodiy tizimni isloh qilish davrida aholini, ayniqsa nochor guruhlarni aniq manzilli va maqsadli ijtimoiy himoya qilish tizimi barpo etildi, pensiya jamg‘armasi, ijtimoiy nafaqalar, pensiyalar va nafaqalar indeksatsiyasi kabi tushunchalar va tuzilmalar amal qila boshladi.

## **XULOSA**

Xulosa o‘rnida shuni aytib o‘tish kerakki, ijtimoiy ta‘minot bo‘yicha yagona mas‘ul organ tashkil qilinishi va tizim bilan bog‘liq barcha vakolatlar unga berilishi kerak. Bugun joriy qilingan ijtimoiy ta‘minotning proaktiv tizimi, ya‘ni “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi tomonidan amalga oshirilmoqda. Lekin, proaktiv tizim ijtimoiy ta‘minotning barcha turlarini qamrab olmagan. Ijtimoiy ta‘minotning barcha turlari interaktiv tizimdan proaktiv tizimga o‘tkazilsa, barcha institutlarda ortiqcha hujjatbozlik, ba‘zan sodir bo‘ladigan korrupsiya holatlarini oldini olgan bo‘lar edik. Ijtimoiy ta‘minot iqtisodga emas, insonga xizmat qilishi, ya‘ni ijtimoiy nafaqalar yashash xarajatlariga moslashtirilishi, buning uchun iste‘mol savatchasi, yashash minimumi qonuniy tasdiqlanishi, nafaqa miqdori yashashning bazaviy ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqilishini lozim, deb hisoblaymiz.

Bir soʻz bilan aytganda ijtimoiy taʼminot – ijtimoiy siyosatning oliy moʻljali boʻlib, inson manfaatlarini va iqtisodiy farovonligini taʼminlashga xizmat qilishi lozim.

#### Adabiyotlar/ Литература/ References:

---

1. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Izoh.uz
2. Обидов Оқилжон. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-i/ijtimoiy-taminot-uz/>
3. Иванова Р.И. Правоотношения по социальному обеспечению в СССР. – М.: Изд-во Моск. ун-та, 1986. – С.8-22. Архивировано 19 января 2012 года.
4. Захаров М.Л., Тучкова Э.Г. Общая часть. Глава 1. §3. Понятия социального обеспечения, социального страхования и социальной защиты населения. Функции социального обеспечения // Право социального обеспечения России. – М.: Волтерс Клувер (WoltersKluwer), 2004. – С.29-39. ISBN 5-466-00004-3
5. Сирожиддинова З.Х. Ўзбекистон Республикаси бюджет тизими. –Дарслик. – Тошкент: infoCom.Uz MChJ нашриёти, 2010.. – 367 б.
6. Ўзбекистон Республикаси “Фуқароларни давлат пенсия таъминоти тўғрисида”ги қонун, 7-модда. 1993 йил 3 сентябр.
7. <https://hudud24.uz/news/pensiia-va-nafakaning-nima-farki-bor-6-ta-mukhim-malumot>
8. <https://uz.wiktionary.org/wiki/%D0%BA%D0%BE%D0%BC%D0%BF%D0%B5%D0%BD%D1%81%D0%B0%D1%86%D0%B8%D1%8F>
9. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-i/imtiyozlar-uz/>
10. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-i/ijtimoiy-yordam-uz/>

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

7 ЖИЛД, 2 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ  
ТОМ 7, НОМЕР 2

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES  
VOLUME 7, ISSUE 2

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000